

MUHAMMAD OMON VORASTA “بازیز سرنوشت” “TAQDIR O‘YINI”
ASARIDA ZAMON VA QAHRAMON TAQDIRI MUTANOSIBLIGI

Kabirova Nargiza Kaxramonovna

Dotsent. PhD.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +998909600073

gmail: n.kabirova.88@gmail.com

ANNOTATSIYA

Muhammad Omon Vorasta o‘z asarlarida ishq-muhabbat mavzusini ochib bergen holda, o‘zidan oldingi ijodkorlar singari jamiyatning boy qatlamlaridan bo‘lgan qahramonlar hayotini tasvirlashga, ularning ichki dunyosi, ruhiy holatini ochib berishga intiladi. Yozuvchining asarlaridagi qahramonlar ham yuksak davralarga mansub, ularning muhabbatni, taqdiri tasvirlanadi. Vorasta so‘nggi yillar voqealari asosida romanlaridagi to‘qima obrazlariga, voqealar rivojiga yangi taassurotlarni kiritadi. U, o‘z qahramonlarining xarakterini yanada teranroq ochib berish to‘g‘risida jiddiy o‘ylaydi. “بازیز سرنوشت” (“Taqdir o‘yini”) romani bosh qahramon Ahmad hayoti haqidagi ibratli hikoyadir. Qashshoqlik va abadiy sinovlarda yashayotgan Ahmad kashmirlik savdogarning uyiga hizmatchi sifatida ishga kiradi. Bir necha yil o‘tgach, u savdogarga va uning oilasining barcha a’zolariga qattiq bog‘lanib qoladi. Savdogar kamtarin va mehnatkashligini, musulmonlarning barcha qoidalari va odatlariga riosa qilganligini, imonlik insoflik yigit ekanligini bilib uni yoqtirib qoladi va o‘z qizini shu yigitga turmushga beradi. Voqealar shunday rivojlanadiki, savdogar Ahmadni asrab olib boylik ilinjida to‘g‘ri yo‘ldan adashgan botqoqlik sari yuz tutgan o‘g‘li Salimdan yuz o‘giradi. Asar qiziqarli voqealarga boy bo‘lishi bilan birga ko‘ngilochar va tarbiyaviy xususiyatga ega ekanligi tahlilda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, badiiy tasvir, xarakter, peyzaj, mumtoz adabiyot, kompozitsiya.

АННОТАЦИЯ

Мухаммад Омон Вораста в своих произведениях раскрывает тему любви, как и его предшественники, стремится изобразить жизнь героев, принадлежащих к высшим слоям общества, раскрывая их внутренний мир и душевное состояние. Герои произведений писателя также принадлежат к высоким кругам, в произведениях описывается их любовь и судьба. Вораста на

основе событий последних лет привносит новые впечатления в развитие событий и в художественные образы своих романов. Он серьёзно задумывается о более глубоких раскрытиях характеров своих героев. Роман “بازیزرسنوت” (“Игра судьбы”) — это поучительный рассказ о жизни главного героя Ахмада. Ахмад, живущий в бедности и вечных испытаниях, устраивается на работу служой в дом кашмирского торговца. Через несколько лет он сильно привязывается к торговцу и всем членам его семьи. Торговец, убедившись в его скромности, трудолюбии и соблюдении всех мусульманских традиций, начинает симпатизировать ему и выдает за него свою дочь. События развиваются таким образом, что торговец, приняв Ахмада как сына, отворачивается от собственного сына Салима, который в погоне за богатством свернул с правильного пути. Произведение, помимо насыщенного сюжета, обладает также развлекательным и воспитательным характером, что раскрывается в анализе.

Ключевые слова: образ, художественное изображение, характер, пейзаж, классическая литература, композиция.

ABSTRACT

In his works, Muhammad Omon Vorasta explores the theme of love, much like his predecessors, by portraying the lives of protagonists from the affluent layers of society and revealing their inner worlds and emotional states. The characters in his writings also belong to high social circles, with their love stories and destinies being central to the narrative. Drawing from recent events, Vorasta introduces new impressions into the development of fictional events and characters in his novels. He thoughtfully focuses on revealing his characters' personalities in greater depth. The novel novel “بازیزرسنوت” (“The Game of Fate”) is an instructive tale about the life of the main character, Ahmad. Living in poverty and constant trials, Ahmad begins working as a servant in the home of a Kashmiri merchant. Over the years, he grows deeply attached to the merchant and his family. The merchant, impressed by Ahmad's humility, hard work, and adherence to Islamic values and traditions, comes to admire him and marries his daughter to him. As the story unfolds, the merchant accepts Ahmad as a son and turns away from his biological son Salim, who strays from the righteous path in pursuit of wealth. The work is not only rich in engaging events but also holds entertainment and moral significance, as discussed in the analysis.

Keywords: character, artistic depiction, personality, landscape, classical literature, composition.

KIRISH

Muhammad Omon Vorasta asarlari axloqiy va etnik muammolarga, asosan vijdon kabi etnik toifalarga tegishli hisoblanadi. Yozuvchining birqancha asarlari ichida anchagina omad keltirgan asari “базизсрнөшт”[1p.1-131] (“Taqdir o‘yini”) asari hisoblanadi. Bu roman voqealar rivoji Afg‘oniston hududlarida emas, balki Hindiston va uzoq sharq mamlakatlarida ro‘y beradi. Yozuvchi asarni boshida Bengal ko‘rfazi va u yerdagi aholi hayot turmush tarzini tasvirlar ekan peyzaj tasviri vositasidan naqadar go‘zal foydalanganligini ko‘rsak bo‘ladi.

از جمله ولايات هند يکی هم ایالت بنگال است که مرکز آن شهر بزرگ و پر این شهر از لحاظ تجارت قابل اهمیت بوده و دارای بندرگاه جمعیت و صنعتی کلکته می باشد بزرگ تجاری است، کثرت جمعیت و آمد و شد مسافرین و داد و ستد های شایانی که در این شهر صورت می گیرد بر جلوه آن صد چندان افزوده است.

- *Hindiston provinsiyalaridan biri Bengaliya shtati bo‘lib, uning markazi yirik, aholisi gavjum va sanoatlashgan Kalkutta shahridir. Bu shahar savdo nuqtai nazaridan muhim va yirik savdo portiga egabo‘lib, bu yerda ishslash uchun qulayliklar bo‘lganligi sababli ko‘p sonli odamlar va sayohatchilar kelib-ketadi.* [2p.7]

Yozuvchi shu shaharning qulay joylashgan o‘rni undagi imkoniyatlarni tasvirlab o‘tar ekan bunday katta shaharlardagi qiyinchiliklar, oddiy qora mehnatda yurgan xalq hamda badavlat qatlamga tegishlilar ham birday bu yurtning obi - havosida birday toblanish tasvirini ham mohirona keltirib o‘tadi.

غرييو عمومي و تحولات سريعي که در اين شهر صورت مي گيرد معمولاً تا پاسي از شب خاموشی اهالي اين شهر اعم از فقير و ثروتمند، دارا و ندار همه برای به دست آوردن پول و امرار معاش نمي گيرد خود يك لحظه دست از جديت نمي کشند از آنجا که اين شهر يکي از ایالات بنگال است و به خط استوا نزديک مي باشد هوایش بسیار گرم و طاقت فرساست و با وجود آن که بارانهای موسمی و رطوبتهاي خلیج بنگال و دریای هند در جلوگیری این گرما بطور قابل ملاحظه اي موثرند، اما باز هم حرارت شدید خورشید ساکنین این نواحی را آزار مي دهد.

-*Bu shaharda sodir bo‘layotgan umumiy g‘alayon va shovqin-suronlar, odatda, kechgacha tinmaydi. Bu shaharning xalqi boy-u kambag‘al, pul topish va maosh olish uchun mehnat qilishdan bir zum ham to‘xtamaydi, chunki bu shahar Bengaliya shtatlaridan biri bo‘lib, ekvatorga yaqin joylashgan. Havo issiq. kuchli va mavsumiy yomg‘irlar va Bengal ko‘rfazi va Hind dengizining namligi bu issiqlikni sezilarli*

darajada oldini olishiga qaramay quyoshning kuchli isishi hali ham bu hududlarning aholisiga ozor bermoqda.[3p.9]

Yozuvchi bu shahardagi insonlar hayot tarzini, qiyinchilagini tasvirlar ekan bu shahar tabiatiga hos bo'lgan shovqin suronlar, pul toppish ilinjida quyoshning yondiradigan otaqshida mehnat qilayotgan halqning azoblari go'yo kech tushganda shahar tinchiganda g'oyibona qayergadir yo'qolishini va ular huddi bir ertakda o'zлari uchun yaratgan jannatda yashayotgan insonlardek tasvirlaydi.

با این حال ژروتمندان بسیاری در این شهر ساکنند و بعضی از آنها چنان زندگی پر تجملی برای خود تشکیل داده اند که انسان را به یاد بهشت شداد می اندازد. در شباهای مهتابی و به خصوص شباهایی که قرص کامل ماه نور نقره می پاشد، و نسم ملایم و مطبوع می وزد بندرگاه این شهر که غرق در نور چراغهای الوان می باشد نظر هر بیننده و به خصوص جهانگردان را با شعفی بسیار جلب می کند. حرکت قایقها با چراغهای رنگینشان بر روی امواج منظره دلفربی دارد و آنان که دارای قلوبی آنکه از مهر و محبت و روحی مملو از احساسات پاک، لطیف و شاعرانه اند، بر روی نیمه کتهای ساحل می نشینند و با تماشای مناظر بدیع دریا، ساعتها خود را به دست تخیلات شیرینی می سپارند و از واقعیات ملال آور زندگی روزمره فاصله می گیرند.

- *Holbuki, bu shaharda ko'plab boylar yashaydi va ularning ba'zilari o'zilar uchun shunday dabdabali hayot qurib olishganki, u jannatni eslatadi. Oydin tunlarda, ayniqsa, to'lin oy kumush nuri charaqlab turgan, mayin va yoqimli shabada esadigan tunlarda Alvon chiroqlari shu'lasiga cho'milayotgan bu shahar porti har bir tomoshabin. Katta mammuniyat bilan, ayniqsa, sayyohning e'tiborini tortadi. To'lqinlar ustida rang-barang chiroqlari bor qayiqlarning harakati maftunkor manzara bo'lib, qalbi mehrga to'lib, qalbi musaffo, muloyim va she'riy tuyg'ularga to'la bo'lganlar sohildagi skameykalarda o'tirib, go'zal dengiz manzaralarini tomosha qilishadi. Soatlab ular shirin xayollarga berilib, kundalik hayotning zerikarli haqiqatlaridan uzoqlashadilar.[4p.15]*

Shahar aholisi oqshomlari orzu-umidlarga boy bu tundan kunga o'tishni hohlamaydilar chunki tunda ular o'zilar orzu qilgan hayotni osmonlarga qarab bunyod eta oladilar. Yozuvchi bu xalqning naqadar soda, qaqshshoq va ko'p istirob chekkaniga qaramay dono ekanligini, nafsiga qul bo'lmay qodiri yetgancha topganiga shukur qilib yashovchi insonlar ekanligini keltirib o'tadi:

در گوش و کنار همین شهر، هزاران نفر هستند که شبها بالینشان خاک است و رواندازی جز آسمان ندارند. هر لحظه از پهلوی به پهلوی دیگر می نشینند اما هرگز خواب به چشمان نمی رود، شاید گرسنه اند، شاید هم در دیالاتر از گرسنگی دارند. آنها هرگز دست به سوی کسی دراز نمی کنند. و با وجود آنکه در نهایت تنگدستی بسر می برند لیکن گویی واقعیت زندگی را درک کرده اند و می دانند که نباید پولی جز آن که بازور بازوی خوبیش فراهم کرده اند برای گذراندن معاش خوبیش از کسی بگیرند.

- *Bu shaharning har bir go'shasida tunda to'shagi tuproq bo'lgan, osmondan boshqa panohi yo'q minglab odamlar bor. Har lahza u yoqdan-bu yoqqa o'tirishadi, lekin uxlamaydilar, balki och qolishar, balki ochlikdan ko'ra ko'proq azob chekar. Ular hech qachon hech kimga murojaat qilishmaydi. Ular o'ta qashshoqlikda yashashlariga qaramay, hayot haqiqatini anglab yetgan ko'rindi va o'z qo'lining quvvati bilan ta'minlaganidan boshqa hech kimdan pul olmaslik kerakligini biladi.* [5p.17]

Voqealar Hindiston zaminlarida ro'y bergan bo'lsada. Vorasta asli afg'on xalqi ichki azoblari, odamlarning dardlarini yashirin holda tasvirlagan. Ya'ni hind aholisini ma'jizi ma'noda afg'on aholisi tasvirida yozgan. Buni yuqoridagi yozuvchi aytgan gaplari: "*Bu shaharning har bir go'shasida tunda to'shagi tuproq bo'lgan, osmondan boshqa panohi yo'q minglab odamlar bor.*"

Umuman aslini olganda yozuvchi yashagan yillarda afg'oniston aholisi va o'sha sharq mamlakatlari hududlarida hayot ancha og'ir kechgan. Halol luqma toppish juda qiyin bo'lishiga qaramay o'z insoniylik tuyg'ularini yo'qotmagan odamlar qodiri yetgangan darajada topganlariga shukur qilib yashaganlar. Vorastaning asarlarida ham aynan mana shu insoniy qadr qimmatlarni - aynan pok qalbli insonlarga tegishli bo'lgan tuyg'ularni ulug'lab yozish oliy maqsadlaridan biri bo'lgan.

Vorasta asar boshida ko'rsatib o'tgan issiqni havoni yanaham kuchliroq jonlantirar ekan quyosh obrazi ortida shu halqning ochlikdan, chuchuk suv va tunlari behavotir orom olishlari uchun boshpanasizliklarini tasvirlar va bu qyinoqlarga kata-yu - kichikning, yoshu-qarining nolalari ham yordam bermayotganday edi.

موسم گرمای سوزان فرا رسیده بود، نه باد می وزید و نه هوا جریان داشت، گویی شهر را از فلزی مذاب بنا کرده بودند، از بالا و پایین آتش می بارید، و خورشید بیداد می کرد، ناله همه از این گرمای طاقتفرسا به آسمان رسیده بود اما شکایتهای پیر و جوان و بزرگ و کوچک چه دردی دوا می کرد؟

- *Jazirama issiq mavsumi yetib keldi, shamol ham, havo oqimi ham yo‘q edi, go‘yo shahar eritilgan metalldan qurilganday tepadan va pastdan olov gupurib urar, quyosh tinimsiz yog‘ayotganday edi, bu jazirama issiqliqdan hamma nola qilardi. Bu jazirama issiqning nolasi osmonga yetib bordi-yu, lekin keksayu yosh, kattayu kichikning shikoyati qanday dardga shifo bo‘ldi? [6p.42]*

Bu jazirama issiqni, ochlik va kasallikni go‘ya jahannamga o‘xshatar va Shunday murakkab vaziyatga tasvirlar ekan nutqni bezash, muayya

kayfiyat yo xissiy munosabatni ifodalash maqsadida yozuvchi o‘quvchiga bir savolni o‘rtaga tashlaydi va uni tahlil qilishga undaydi.

و در آن زمان بود که در برابر چشم هر کس نموداری از دوزخ نمایان شد، البته ثروتمندان در گرمترين نقطه استوا قدرت فراهم کردن يك زندگي لذت بخش را برای خود دارند، اما در شهری که اکثر قریب به اتفاق ساکنین آن را مشتی بدیخت و تهییست تشکیل داده اند چگونه روی خوش زندگی به چشمان می رسد؟ گرما، فقر و بیماری وقتی این سه بلا دست به دست هم بدهند فناي بشر حتمی خواهد بود. رفته رفته روز به نیمه می رسید و هر لحظه بر شدت گرما افزوده می شد.

-... *Va aynan o‘sha paytda hammaning ko‘z o‘ngida jahannam surati paydo bo‘ldi. Albatta, ekvatorning eng issiq nuqtasida boy odamlar o‘zлari uchun rohat hayotni ta‘minlashga qodir, lekin aholining ko‘pchiligi yomon ahvolda, omadsiz va tahdidlar to‘la shaharda yashaydi. Ular tahhidni shakillantirdilar, yaxshi hayotni qanday ko‘rishadi? Issiqlik, qashshoqlik va kasallik, bu uch illat yonma -yon yursa, insoniyatning halokati muqarrar. [7p.53]*

Badiiy obraz borliqning san’atkor ko‘zi bilan qaralgan, ijodiy qayta ishlangan va hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksi. Tushunishimiz osonroq bo‘lishi uchun asardagi quyosh obraziga murojaat qilsak. Yozuvchi yuqorida yaratgan quyosh obrazi boshqa yozuvchilar ijodidagi quyosh obrazlaridan keskin farq qiladi. Insoniyat tarixida hamisha yonma-yon yuradigan tushuncha va ramzlar bor. Masalan, Sharq deyilganda beixtiyor ko‘z oldimizga charog‘on quyosh, bahor chechaklari, bulbul nag‘malari keladi. Quyosh Sharqdan chiqadi. Oftobning zarrin nurlari ko‘zgularga za’faron rang beradi, lola barglariga otashin tus ato etadi. Umuman olganda, quyosh obrazi badiiy adabiyotda an’anaviy obraz bo‘lib, u ijodkorning kayfiyati yoki davr nuqtayi nazari bilan turlicha ma’nolarni anglatib keladi. Jumladan, mumtoz adabiyotda, xususan, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi buyuklarning ijodida quyosh obrazi orqali ilohiy ishq tarannum etilgan. Xususan, Alisher Navoiy orifona va oshiqona g‘azallari tarkibidagi orifona baytlarda quyosh

sayyorasi timsoliga juda ko‘p murojaat etadi, hamd g‘azallaridagi quyosh obrazi timsolida yakka-yu yagonalik faqatgina Ollohga xosligini, uning mavjudligini isbotlash zarurati yo‘qligini ta’kidlash, buyuk yaratuvchanlik xususiyatini vasp etish, vahdatul vujud g‘oyasini ilgari surishga foydalilaniladi.[8p.33]

*Ey quyosh, nevchun qoshingdin soyadek surdung meni,
Ravshan aylab jumlayi olamda kuydurding meni.[9p.87]*

Ushbu baytida ham quyosh timsolida Allohga munojot etadi. Shuningdek, “Axtarin ashk ettiyu sovuq nafasni oh subh” deb boshlanuvchi to‘qqiz baytla g‘azalida kaxyoniy qarashlar ham falsafiy, ham ramziy mohiyat kasb etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘rib turganimizdek yuqoridagi misollarda tasvirlangan quyosh obrazlari Muhammad Omon Vorastaning “بازى سرنوشت” “Taqdir o‘yini” romanining 1-bobida tasvirlangan quyosh obrazidan butkul farq qiladi. Ya’ni ijodkorimiz quyoshni yorqin kunlar, hursandchilik, umidga to‘la kunlar emas aynan jahannamga olib boruvchi yoshu-qariga azob beruvchi bir og‘riq timsolida tasvirlangan.

Bizga ma’lumki Vorasta Afg‘onistondagi ayni bir murakkab vaziyatlarda dunyoga kelgan bo‘lishiga qaramay serqirra ijodkorlardan biri bo‘lishi bilan birga ayni Afg‘onistonda birinch romannavistlardan bo‘lgan. Yozuvchi yangi davr ijodkori ekan uning yaratgan asarlaridagi obrazlarini bizning yurtdoshlarimiz, jadidchilarimiz yaratgan asarlari bilan solishtirsak ayni o‘sha davr muammolarini, vaziyat dolzarblilagini ko‘ra olamiz.

XX asrning boshlarida o‘zbek lirikasida quyosh obrazi o‘lkada yuz berayotgan keskin ijtimoiy-siyosiy kurashlar fonida berildi. Buning yorqin namunalarini Usmon Nosir, Cho‘lpon, Oybek kabi zabardast, erksevar shoirlarning ijodlarida kuzatamiz. Aynan Cho‘lponning “Tortishuv tongi” she’ridan olingan quyidagi satrlarida quyosh obrazi erk, istiqlolga tashna xalqning orzu-umidi sifatida talqin etilgan:

*Chiqadigan quyoshni siz behuda,
Etak bilan to ‘smoq uchun tirishmang.[10p.]*

“Chiqadigan quyoshni” o‘xshatish san’ati orqali oddiy quyosh chiqishidan farqlagan va bu bilan millatning mustaqillikka intilish orzusi kuchli ekanligini ifoda etgan.

Ko‘rib turganimizdek Vorasta va Cho‘lpon bir zamonda yashab ijod qilar ekan ularning yozishdan ma’no maqsadi yozish usuli obrazlar ko‘lami ham bir biriga yaqin.

Yozuvchi shahar aholisining og‘ir vaziyatini tasvirlar ekan o‘rtaga asar bosh qahramoni Ahmadning shaharga kirib kelishi 1- bob kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Yozuvchi bosh qahramonni tasvirlar ekan bosh qahramon obrazini yanada to‘laqonli

yaratish maqsadida badiiy psixologizmga yuzlanadi, ya'ni personaj ruhiyati, uning xatti – harakatlari hattoki kiyib olgan kiyimlari yordamida olib bergan:

-جواني از ناحие شرقی شهر به طرف غرب در حرکت بود کفش های نازکی که پوشیده بود، هیچگونه دفاعي برای او در برابر حرارت سوزنده زمین نداشت. آهسته قدم برمي داشت و با وجود آنکه يك جفت چشم توی صورتش خود نمایي می کرد اما گویي جايي را نمي ديد. انگار دنيا برایش يك مکان تاريک و ترس آور بود. عابرين با نگاههایي آمیخته با شبهه به او می نگریستند زира در حالیکه همه مردم از آفتاب سوزنده می گریختند و به نقطه اي سایه و خنکتر پناه می برند او بي خیال نسبت به همه چيز، آرام و خونسرد زیر نور جانگذار خورشید به سوي مقصد نامعلومي پیش مي رفت. عرق مثل سیل از بدنش جاري بود، ليكن او اهمیت نمي داد. نه گرما در او اثر مي کرد، نه سرما، بلکه دردي تمام وجودش را مي سوزاند و اين سوزاندن در برابر گرمای خورشید هیچ بود. او رنج جانکاهي مي برد. چهره رنگ پریده، چشمهاي گود افتداده، پیکر نحيف و افکار پریشان او، روحش را منقلب ساخته بود که چizi را درک نمي کرد. انگار اصلاً در اين عالم نبود. هر کسی به خود مشغول بود و اگر هم یکباره به او تنه می زد شاید وی را يك دیوانه تصور می نمود اما اگر دقیقاً در چهره او می نگریست به خوبی از سیمايش، غم درد فلاکت و بینوایی را میخواند پوست بدنش سبز مایل به سفید سینه اش ستبر و بینی اش کشده و فلامی بود هر چند موی صورتش انبوه و بلند بود لیکن بیشتر از بیست ساله به نظر نمی رسید لباسش علاوه بر اینکه اجنبی بودنش را به همه کس ثابت میکرد وضع او را نیز به يك دیوانه بیشتر نمایان می ساخت زира کتی ضخیم پوشیده و کلاهی از پوست سیاه به سر داشت در حالی که مردم شهر از پیراهنهای بسیار نازک نخی و شلواری با همین خصوصیات به تن داشتند و همه سرهایشان بر هنر بود جوان نگون بخت همینطور بدون هدف پیش میرفت خودش هم نمی دانست به کجا می رود و چه خیالی دارد و هدف او کجاست؟ مثل اشخاص، مست به چپ و راست متمایل می شد و از این سو به آن سو میرفت درست مانند يك کشتی که بر روی آبهای سست و بی بنیان دریا دچار طوفانی سهمگین و شدید شده است.

-Bir yigit shaharning sharqiy qismidan g'arbga qarab ketayotgan edi. Uning kiygan yupqa tuflisi yerning jaziramasidan himoya qilmasdi. U sekin yurar yuzida bir juft ko 'z oynak bo 'lsa-da, hech narsani ko 'rmadi. Uning uchun dunyo qorong 'u va qo 'rqinchli joy edi shekilli. Yo 'lovchilar unga shubha bilan qarashadi, chunki hamma odamlar jazirama quyoshdan qochib, soyali va salqinroq joyga panoh topishar, yigit hech narsani o 'ylamay, quyosh nuri ostida xotirjam va salqin ketar edi. Quyosh noma 'lum manzil tomon ketmoqda. Tanasidan seldek ter oqardi, lekin parvo qilmasdi, yuziga to 'g 'ridan-to 'g 'ri qarasa, yuzidagi dard, qashshoqlikni o 'qiysi, terisi yashil-oq edi. Sochlari to 'q, burni qirrali va qalam qoshlik, yuz sochlari qalin va uzun bo 'lsa-da, lekin yoshi yigirma yoshdan oshmagandek, egnida qalin palto va qora teridan shlyapa kiygan, shahar aholisi bir xil xususiyatga ega bo 'lgan juda yupqa paxta ko 'ylak va shim kiyib, hamma boshi yalang 'och, uning maqsadi nima, qayerga ketmoqchi? G 'ayri insoniy, mast holatda o 'ngga va chapga egilib,

dengizning ojiz va tubsiz suvlarida shiddatli bo‘ronga urilgan kemadek u yoqdan bu yoqqa o‘tardi. [11p.55]

Bosh qahramon shaharga kirib kelar ekan u shunchaki bir yigit sifatida emas buyerliklarga begona shaxs sifatida kirib keladi. Hammaga ayon bo‘lgan uni bu shahar aholisidan ajratib turuvchi kiyimlari, tashqi ko‘rinishi yorqin tasvirlangan bo‘lsada uni buyerliklardan ajratib turuvchi yana bir hususiyati bor bu ham bo‘lsa uning ichki ruhiyati.

Vorasta asar davomida personajlarning holini, og‘ir vaziyatni va hattoki bazi fasillarga hulosa berishda qadimgi forsiyzabon yozuvchilari ijodidan, ruboiy va g‘azallaridan iqtiboslardan ham foydalangan. Misol uchun adib bosh qahramonning butun ichki ruhiyati abgor holga kelganini, juda ham tushkunlikka tushganini tasvirlar ekan, uni bu hayotdan umidi qolmagan hatto o‘limga tayyorligini ko‘rsatish bilan birga qahramonning shu jumladan naqadar kuchli obraz ekanini ham ko‘rsatib o‘tadi. Uning o‘ziga aytgan:

من به مردن راضیم اما نمی آید اجل
بخت بد بین کز اجل هم ناز می باید کشید.

*Men o ‘limimdan rozimanlekin o ‘limim kelmaydi,
Yomon odam o ‘limidan azob chekishi kerak.*

ushbu satrlari bu hayotdan umidi qolmaganini ammo qalbida iymoni va keljakka umidi borligini ko‘rsatadi. U bu shaharda begona bo‘lsa ham shu yerda ishlab kurashishga harakat qiladi va o‘z oldiga mehnat orqali barcha g‘am qayg‘ularni unutib bo‘lishini isbotlayman deb maqsad qo‘yadi.

Bundan tashqari Hofiz Sheraziyning 143 g‘azalining 9 bayti:

فیض روح القدس ار باز مدد فرماید
دیگران هم بکنند آنچه مسیحًا می‌کرد

*Muqaddas Ruhning inoyati sizga yana yordam bersin
Boshqalar Masih qilgan ishni qilsinlar
Umar hayyomning 66 ruboiysidan:*

ساقى غم فردای حریفان چه خورى
پیش آر پیاله را که شب می‌گذرد

Amir Xusraf Dehlaviyning “She’rlar devoni” dagi 1560 g‘azalinig 5 baytidan:

ناله را هر چند مى خواهم كه پنهان بركشم
سینه مى گوید كه من تىگ آدم «فریاد کن»

Tasavvuf ta’limotidan oziqlangan va bu ta’limotga katta hurmatda bo‘lgan Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyimul muhabbat”[12p.] asarining so‘zboshisida komillik sifatlarini o‘ziga xos tarzda ifoda etadi. Xususan, birinchisi – tavba, ikkinchisi – halol luqma, uchinchisi – o‘z kasbidan topib kun o‘tkazish, to‘rtinchisi – shariatga rioya qilish, beshinchisi – tariqat odobini saqlash, oltinchisi – kamtarin bo‘lish, yettinchisi – chuchuk tilli bo‘lish, sakkizinchisi – rahmdil bo‘lish, to‘qqizinchisi – saxiy bo‘lish, o‘ninchisi – mard bo‘lish, o‘n birinchisi – xushxulq bo‘lish, o‘n ikkinchisi rizo-rizolik bilan kun o‘tkazish, o‘n uchinchisi – sabrli bo‘lish, o‘n to‘rtinchisi – vafoli bo‘lish, o‘n beshinchisi – riyozat chekishdan qo‘rqmaslik deb keltirib o‘tgan[13p.]. Vorasta ham bosh qahramonni adabiyot an’anasiga ko‘ra, qahramon xayratu xurmat obyekti, ma’lum darajada, ibrat namunasi qilib yaratgan. Ahmad obrazi har tomonlama yosh kitobxonlarga na’muna bo‘la oladigan komil inson sifatida gavdalantiradi.

Asarda yana bir nechta epizotik obrazlar mavjud bo‘lib ulardan biri Mumtoz, Mumtozning ma’shuqasi, Salim va asarda nomi keltirilmagan faqat mansabi bilan murojaat qilingan militsiya hodimidur.

Aytib o‘tish joiz bo‘lgan masala Vorastaning “Taqdir o‘yini” romani markazida yana bir Molik (boy savdogar) obrazi turadi. Bu personaj Ahmad(Hamid)ni o‘z panohiga olib uni ish bilan ta‘minlaydi, tushkunlikdan olib chiqadi va hattoki umrining so‘ngi kunlarida bor budini Ahmadga qoldirib ketadi.

Yozuvchi asar davomida personajlarning holini, og‘ir vaziyatni va hattoki bazi fasillarga hulosa berishda qadimgi forsiyzabon yozuvchilar ijodidan, ruboiy va g‘azallari iqtiboslaridan ham foydalangan.

Muhammad Omon Vorasta asarlarining qahramonlari hayotda juda ko‘p qiynalgan, qalbi armonga to‘la taqdir egalaridur. Bunday yondashuv qahramon tuyg‘ularini to‘laroq idrok etish, uni chuqur tushunib tadqiq qilish, insonlarning xatti-harakatlarini yashash sharoiti, tayanadigan axloqiy o‘rnaklaridan kelib chiqib baholash imkonini beradi. Vorastaning romanlari ishqiy-ijtimoiy asarlar qatoriga kiradi. Uning asarlarida voqealar jarayonining tabiiy tasviri sarguzashtlilik va ma’lum ma’noda detektivlik unsurlari bilan omixta holda amalga oshirilgan.

Bundan ko‘rinadiki, Muhammad Omon Vorasta asarlarida odamlar qismatining og‘ir va ilojsizligi tasviridagi umumiylit obrazlar tasviridagi yaqinlikka sabab bo‘lganligida kuzatiladi. Adib hayotdagi shunday odamlarni badiiy obrazga aylantiradiki, ularning tashvishlari, og‘ir vaziyatda ham o‘z vijdonlarini sotmasligi, iztirobi, baxtsizligi bir-birinikidan ayanchli bo‘lsa bordir, ammo kam emas. Xususan, yozuvchini hayotdagi shunday insonlar ruhiyati va hayoti tadqiqi qiziqtiradi.

XULOSA

Umuman olganda, adabiy asarda esda qoladigan badiiy obraz tinimsiz izlanishlar mahsuli sifatida dunyoga keladi. “Yozuvchi hayotni quruq, jonsiz, ehtirossiz tasvirlay olmaydi. U hayotni chuqur his qiladi, jonli va emotsiyal ravishda o‘zlashtiradi va tasvirlaydi”. Badiiy tasvir vositalari asardagi obrazlarga emotsiya bag‘ishlab, ularni tirik odamga aylantiradi. Shu jihatdan qaraganda tasvir vositalarisiz badiiy asar yaratilmaydi. Aks holda asarda keltirilgan hayotiy dalillar bilan chegaralanib, zerikarli va quruq bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- | | |
|---|----|
| 1. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۱-۳۳۱ ص. | .1 |
| 2. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۸ ص. | .2 |
| 3. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۹ ص. | .3 |
| 4. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۱۵ ص. | .4 |
| 5. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۱۷ ص. | .5 |
| 6. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۴۲ ص. | .6 |
| 7. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۵۳ ص. | .7 |
| 8. Husniddin Eshonqulov. “Alisher Navoiy she’riyatida samoviy timsollar”. Samarqand.1999. B-33. | |
| 9. Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to’plami. 20 tomlig.1-tom. Toshkent: “Fan”, 1987. B-87. | |
| 10. Abdulhamid Cho‘lpon. “Binafsha” she’riy to‘plami (2021) www.ziyouz.com kutubxonasidan | |
| 11. محمد امان وارسته. بازى سرنوشت. کابل-تهران. سال مجھول. ۵۵ ص. | |
| 12. http://library.navoiy-uni.uz/files/navoiy_nasoyimul-muhabbat_latin_ziyouz_com.pdf | |
| 13. https://fayllar.org/komil-inson-va-uning-sifatlar.html | |